

LISONIY SHAXS VA NUTQIY PORTRET YARATISHDA TIL VOSITALARIDAN FOYDALANISH

S.H. Ulliyeva,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, f.f.n. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada lisoniy shaxs tushunchasining nazariy asoslari va nutqiy portretini yaratish masalalari batafsil tahlil qilinadi. Unda lisoniy shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar – ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, individual psixologik xususiyatlar hamda kommunikativ ehtiyojlar yoritib beriladi. Muallif lisoniy shaxsni aniqlashda til vositalarining, xususan, leksik, frazeologik, grammatik va stilistik birliklarning tutgan o'rnini chuqur o'rganadi. Maqolada nutqiy portret tushunchasi keng talqin qilinib, u shaxsning nutq faoliyatida namoyon bo'ladigan individual uslub, til tanlovi va ifoda vositalari orqali shakllanishi asoslab beriladi. Shuningdek, turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan foydalanish darajasi va uslubi lisoniy shaxsning o'ziga xosligini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Amaliy misollar orqali nutqiy portretni yaratishda til birliklarining funksional imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: til birliklari, leksik zaxira, nutq uslubi, til vositalari, kommunikativ shaxs, ifoda vositalari.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются теоретические основы понятия языковой личности и вопросы создания речевого портрета. Рассматриваются факторы, влияющие на формирование языковой личности, такие как социальная среда, культурные ценности, индивидуальные психологические особенности и коммуникативные потребности. Автор глубоко исследует роль языковых средств, в частности лексических, фразеологических, грамматических и стилистических единиц, в определении языковой личности. В статье широко интерпретируется понятие речевого портрета, обосновывается его формирование через индивидуальный стиль, выбор языковых средств и способы выражения, проявляющиеся в речевой деятельности личности. Также уровень и стиль использования языковых средств в различных коммуникативных ситуациях рассматриваются как важный фактор, определяющий уникальность языковой личности. На основе практических примеров раскрываются функциональные возможности языковых единиц при создании речевого портрета.

Ключевые слова: языковые единицы, лексический запас, речевой стиль, языковые средства, коммуникативная личность, средства выражения.

Abstract. This article provides a detailed analysis of the theoretical foundations of the concept of the linguistic personality and the issues related to the creation of its speech portrait. It examines the factors influencing the formation of a linguistic personality, including the social environment, cultural values, individual psychological characteristics, and communicative needs. The author thoroughly investigates the role of language means, particularly lexical, phraseological, grammatical, and stylistic units, in identifying the linguistic personality. The concept of a speech portrait is broadly interpreted, and its formation is substantiated through an individual's speech activity, including personal style, language choice, and expressive means. Furthermore, the level and manner of using language means in various communicative situations are considered an important factor determining the uniqueness of a linguistic personality. The functional potential of language units in constructing a speech portrait is demonstrated through practical examples.

Keywords: language units, lexical resources, speech style, language means, communicative personality, expressive means.

Kirish. Lisoniy shaxs – insonning til muhiti bilan o‘zaro munosabati jarayonida shakllanib, uning individualligi, madaniy tajribasi va turmush tarzini aks ettiruvchi o‘ziga xos nutqiy obrazdir.

Lisoniy shaxsning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Leksik zaxira va nutq uslubi. Har bir insonning o‘ziga xos so‘z boyligi va nutq uslubi mavjud bo‘lib, ular uning turmush tarzi, ijtimoiy mavqeyi, ma‘lumoti, kasbi va boshqa omillarni aks ettirishi mumkin.

Fonetik va grammatik xususiyatlar. Har bir insonning o‘ziga xos talaffuzi va jumla tuzishi ayricha bo‘lib, ular dialekt, diniy yoki irqiy kelib chiqishi, hatto xarakteriga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Madaniy va ijtimoiy xususiyatlar. Lisoniy shaxs insonning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, an‘ana va urf-odatlarini kabi madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini ham aks ettirishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar. Lisoniy shaxs insonning individual xususiyatlarini: uning xarakteri, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlarini aks ettirishi mumkin.

Tilshunoslikda lisoniy shaxslarni o‘rganish insonning o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va qarashlarini ifodalash uchun tildan qanday foydalanishini, shuningdek, til shaxsning ijtimoiy, madaniy va individual xususiyatlarini qanday aks ettirishini tushunishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Lisoniy shaxs va nutqiy portret masalalari zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik yo‘nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Xususan, N.G. Naumova qahramon obrazini yaratishda til vositalarining funksional imkoniyatlarini tahlil qilib, personaj nutqining uning xarakteri va psixologik holatini ochib berishdagi o‘rnini asoslab bergan. A.A. Lipgart lingvopoetik tadqiqot metodlarini ishlab chiqib, badiiy matnda til birliklarining estetik va semantik vazifalarini yoritgan bo‘lsa, E. Qilichev o‘zbek tilida badiiy tasvirning leksik vositalarini o‘rganib, obraz yaratishda so‘z tanlovi va uslubiy birliklarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotlar lisoniy shaxs va nutqiy portretni til vositalari asosida tahlil qilish uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, lingvopoetik hamda pragmalingsvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Nutqiy portretni shakllantiruvchi leksik, grammatik, fonetik va sintaktik birliklar badiiy matnlar asosida tahlil qilinib, ularning lisoniy shaxsni ifodalashdagi funksional imkoniyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, qahramon nutqining individual-uslubiy xususiyatlarini ochib berishda qiyosiy va kontekstual tahlil usullari qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. “Lisoniy shaxs” tushunchasi lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u badiiy asarlarda personajlarning tildan foydalanish usullarini tahlil qilish, til va personajlar shaxsiyati o‘rtasidagi munosabatni aniqlash

imkonini beradi. Qahramonlar nutqiy portretini o'rganish muallifning qahramonlarni tavsiflash uchun tildan qanday foydalanishini va bu ularning sujetdagi rolga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Qahramonlar tilini lingvistik tahlil qilish ularning motivlari, munosabati, xarakteri va his-tuyg'ularini ochib beradi, shuningdek, ularning bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatadi. Nutqiy portret qahramon xarakteridagi o'zgarishlarni va umuman, sujet rivojlanishini ochib berishi mumkin. Bundan tashqari, nutqiy portret tahlili asardagi ma'lum bir kayfiyat, ohang va muhitni yaratish uchun muallif tildan qanday foydalanganligini tushunishga yordam beradi. Qahramonlarning dialekti, lahjasi, gapirish uslubi, prosodiya kabi til xususiyatlari ijtimoiy tabaqa, ma'lumoti, jamiyatdagi mavqeyi va boshqa omillardagi farqlarni aks ettirishi mumkin. Qahramon nutqini lingvistik tahlil qilish muayyan lisoniy vositalar qahramonlar xarakteriga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi.

Keyingi yillar o'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs, kommunikativ shaxs, nutqiy shaxs, nutqiy shaxs portreti, shaxs lingvistik modeli, nutqda mujassamlashgan til shaxsi, lingvomadaniy tip, nutqiy xatti-harakatlar kabi tushunchalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilayotgani tilshunoslikning antroposentrik paradigmasiga tayanuvchi psixolingvistika, pragmalolingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika kabi bir qator tarmoqlarida sezilarli o'sish kuzatilayotganini va inson omiliga lingvistik nuqtayi nazardan e'tibor kuchayganini bildiradi. "Nutqiy portret" termini "lisoniy o'ziga xoslik" atamasi bilan birga paydo bo'lgan. Nutqiy portretlarining yaratilishidagi lingvistik o'ziga xoslikni tasvirlash va insonni aks ettirish usuli sifatida til omilini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikda tobora ommalashib bormoqda.

Tilshunoslikda "qahramonning lisoniy portreti" yoki "nutqiy portret" tushunchasi nisbatan yaqinda qo'llanila boshlandi. Tilshunoslik yo'nalishidagi fanlar doirasida qahramon portreti qahramonning xarakteri, hissiy holati va xulq-atvori haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan maxsus matn turi sifatida qaraladi. Bugungi kunda qahramonning lisoniy portreti adabiy ijodning muhim elementi bo'lib qolmoqda hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida o'rganilmoqda. Lingvistik vositalar yordamida mualliflar qahramonlarning asarni idrok etish va tushunishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yorqin va esda qolarli obrazlarini yaratishi mumkin.

Qahramonning nutqiy portretini yaratish uchun ishlatiladigan til vositalarini bir necha toifaga bo'lish mumkin:

1. Leksik vositalar. Shaxsiy xususiyatlarni aks ettirishi mumkin bo'lgan ba'zi so'z va iboralardan foydalanish.

2. Grammatik vositalar. Shaxsiy xususiyatlarni aks ettiruvchi ma'lum zamonlardan foydalanish yoki biror kishining his-tuyg'ularini, qo'shimcha munosabatini ifodalashi mumkin bo'lgan ba'zi modal fe'llardan foydalanish.

3. Fonetik vositalar: geminatsiya, assonans, alliteratsiya, o'ziga xos ovoz ohangi kabilar.

4. Sintaktik vositalar. Shaxsning hissiy holatini yoki munosabatini aks ettirishi mumkin bo'lgan ma'lum so'z tartibidan foydalanish.

Nutqiy portret yaratuvchi bu til vositalari biror badiiy asar matnida aralash va bir-biriga uyg'un holatda qo'llaniladi.

Umuman olganda, personajning nutqiy portretini yaratishda so'zlovchining shaxsiy xususiyatlari va hissiy holatini aks ettira oladigan keng ko'lamlil til vositalaridan foydalanish talab etiladi.

Xulosa. Xullas, qahramonning lisoniy o'ziga xosligini o'rganish tilshunoslarga xarakterning til bilan qanday munosabatda bo'lishini va til birliklari ularning fikrlashi, xatti-harakati hamda boshqa obrazlar bilan munosabatlariga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi. Nutqiy portret tilshunoslarga ma'lum til guruhlari va madaniyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan lingvistik stereotiplar va tasavvurlarni tahlil qilishga yordam beradi. Shunday qilib, nutqiy portret tushunchasi lingvistik tadqiqotlarda muhim o'rin tutib, tadqiqotchiga tilning adabiyotda ishlatilishini tahlil qilish, til va personajlar shaxsiyati o'rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi.

Lisoniy shaxs va nutqiy portret tushunchalari tahlilidan xulosa shu: badiiy asarda personajga tegishli matnlardan uning lisoniy shaxsi xarakteristikasini qayta tiklash orqali pirovardida shu shaxsning ma'naviy-ruhiy olamiga asoslangan butun ko'p qatlamli va murakkab badiiy obrazni ochish hamda tushunishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Наумова Н.Г. Языковые средства создания образа П.И.Чичикова (на материале поэмы Н.В.Гоголя "Мертвые души"). – Киров: Издательство ВятГГУ, 2010. – 124 с.
2. Липгарт А.А. Методы лингвопоэтического исследования. – Москва, 1997. – 220 с.
3. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.